

## Oriental Journal of Education



## PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF HERMENEUTIC COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

**Shakhnozakhon Nazirova**

*Basic doctoral student*

*Fergana State University*

*Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** hermeneutic competence, pedagogical interpretation, multi-stage analysis, reflection, digital hermeneutics, interpretation, critical thinking.

**Received:** 17.01.26

**Accepted:** 18.01.26

**Published:** 19.01.26

**Abstract:** This article examines the pedagogical foundations for developing hermeneutic competence among prospective teachers based on contemporary theoretical and practical approaches. The study substantiates the effectiveness of a multi-stage hermeneutic analysis model, the integration of theoretical hermeneutics with practical training, and the use of situational tasks aimed at fostering students' critical thinking. The structural components of hermeneutic competence content interpretation, pedagogical interpretation, and reflective analysis are identified as essential professional skills in teacher education.

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA GERMENEVTIK KOMPETENTLIKNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Shaxnozaxon Nazirova**

*Tayanch doktorant*

*Farg'ona davlat universiteti*

*Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** germeneytik kompetentlik, pedagogik talqin, ko'p bosqichli tahlil, refleksiya, raqamli germeneytika, interpretatsiya, tanqidiy fikrlash.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda germeneytik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ko'p bosqichli germeneytik tahlil modeli, nazariya va amaliy mashg'ulotlarning integratsiyasi hamda talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi vaziyatli topshiriqlarning samaradorligi asoslab berilgan. Hermeneytik kompetentlikning struktura komponentlari mazmuniy talqin,

pedagogik interpretatsiya va refleksiv tahlil o'qituvchi tayyorlash jarayonida asosiy kasbiy kompetensiya sifatida baholanadi.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Шахнозахон Назирова**

Базовый докторант

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** герменевтическая компетентность, педагогическая интерпретация, многоступенчатый анализ, рефлексия, цифровая герменевтика, интерпретация, критическое мышление.

**Аннотация:** В данной статье анализируются педагогические основы развития герменевтической компетентности у будущих учителей на основе современных научных и практических подходов. Исследование обосновывает эффективность многоступенчатой модели герменевтического анализа, интеграции теоретических знаний с практическими занятиями, а также ситуационных заданий, направленных на развитие критического мышления студентов. Структурные компоненты герменевтической компетентности: смысловая интерпретация, педагогическая интерпретация и рефлексивный анализ рассматриваются как ключевые профессиональные навыки в системе подготовки педагогов.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini, xususan, ularning pedagogik faoliyatni anglash, tahlil qilish va talqin etish qobiliyatlarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasi shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lib, bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki murakkab pedagogik jarayonlarni tushunish va izohlashga oid kompetentliklarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ehtiyoj germenevtik kompetentlikni pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qarash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Germenevtika dastlab matnlarni talqin qilish nazariyasi sifatida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda u pedagogika, psixologiya va ta'lim falsafasida o'quv jarayonini, pedagogik vaziyatlarni hamda shaxslararo munosabatlarni chuqur anglash vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Bo'lajak o'qituvchi uchun o'quv materialini, o'quvchi shaxsini, uning ehtiyoj va imkoniyatlarini to'g'ri talqin eta olish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni anglash va mazmunan yechim topish germenevtik kompetentlik bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining matnni tushunish, talqin qilish va mazmunni didaktik vazifalarga moslashtira olish qobiliyati muhim kompetensiya sifatida qaralmoqda. Germenevtik kompetentlik (matnni talqin qilishga oid professional ko'nikmalar majmui) bo'lajak pedagoglarning matn, axborot va vaziyatlarni talqin qilishidagi tayyorgarlik darajasini belgilaydi[1]. So'nggi yillarda o'qituvchining interpretativ kompetensiyasi raqamli axborot oqimida samarali pedagogik faoliyatning asosiy komponenti sifatida baholanmoqda[2]. Gadamer H.G. o'zining Truth and Method asarida hermenevtikaga shunday tushuntirish beradi: hermenevtika – bu talqin qilishdir, ya'ni aynan matnning maqsadidan kelib chiqib mohiyatini tushunishdir.

Tushunishimiz uchun matnlarning bir necha turlari borligini esga olamiz: masalan, odatiy yozuvli matnlar, audio matnlar, ba'zan rasmlarni ham matn sifatida qabul qilish mumkin. Gadamerning fikriga ko'ra esa har bir matn ham talqinga muhtoj emas. Masalan, biz mashinada harakatlanar ekanmiz, chapga burilish mumkin emasligi haqidagi belgini ko'ramiz yoki biror tarixiy olimning tug'ilgan yili va yozgan asarlari haqidagi tarixiy ilmiy matnni olaylik. Bunday matnlar talqin qilinishi mumkin emas, chunki ularda aniqlik asosiy tamoyildir. Lekin yana shunday matnlar ham mavjudki, ular aynan talqin qilinishi shart. Masalan, diniy kitoblar – ular eng birinchi talqinli kitoblardir.

Yana bir qator kitoblarni sanab o'tsak bo'ladi: boshlang'ich ta'lim darsliklarida ham aynan hermenevtik yondashuv asosida tushuntiriladigan matnlar mavjud. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni matn bilan ishlashga o'rgatish ularning tafakkurini, nutqiy faoliyatini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu jarayonda hermenevtik metodlardan foydalanish o'quvchi shaxsini faollashtiradi, matnni chuqur anglashga va undagi g'oyalarni talqin qilishga yo'naltiradi. Hermenevtika nazariyasi falsafiy (G.G. Gadamer, P. Riker), lingvistik (V. fon Humboldt, E. Betti) va pedagogik (V. Bibler, N. M. Borytko) yo'nalishlarda shakllangan bo'lib, ularning barchasi ta'lim jarayoniga qo'llanish imkoniyatini beradi [1, 112]. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda hermenevtik yondashuvning ta'limdagi imkoniyatlari ilmiy izlanishlarga sabab bo'lmoqda.

**Tadqiqod metodologiyasi.** Bugungi globalizatsiya va madaniyatlararo muloqot sharoitida, turli madaniyatlardan kelgan insonlar bir-birini to'g'ri tushunishi uchun hermenevtik kompetensiya zarur. Bu qobiliyat nafaqat matnshunoslik, balki siyosat, ijtimoiy fanlar, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda ham muhimdir. Hermenevtik kompetensiya yordamida insonlar bir-birining fikr va qarashlarini yaxshiroq anglab, muloqotni samarali olib borishlari mumkin. Bu kompetensiya shaxsning tafakkur doirasini kengaytiradi, madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi va zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot uchun zarurdir. Shuning uchun ham har bir inson uchun hermenevtik kompetensiyani rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ushbu maqolada hermenevtik kompetentlikning pedagogik asoslarini tahlil qilishda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

- Lisoniy tahlil (lingvistik hermenevtika orqali matnning mazmun va struktur kategoriyalarini aniqlash) [3, 52];
- Pedagogik diagnostika (bo'lajak o'qituvchilarning talqin ko'nikmalarini baholash metodikasi) [4, 71];
- Komparativ tahlil (xalqaro va milliy tadqiqotlar qiyosi) [5, 29].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilar uchun hermenevtik kompetentlik uch asosiy komponentdan iborat ekanini ko'rsatdi:

### 1. Mazmunni talqin qilish kompetensiyasi

Bu komponent pedagogning murakkab matn va vaziyat mazmunini sharhlash, semantik birliklar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlay olish qobiliyatini bildiradi. Tadqiqotda talqin malakasi yuqori talabalarda fikrni qayta ishlab berish, kontekstni tushunish ko'nikmasi ancha faol bo'lgani aniqlandi [6, 88].

### 2. Pedagogik interpretatsiya kompetensiyasi

Bu ko'nikma o'qituvchi tomonidan o'quv matni mazmunini yosh xususiyatlariga moslashtirib qayta talqin qilishni anglatadi. Raqamli axborot muhitida bu jarayon har xil ma'lumot shaklini (matn, media, grafika) didaktik maqsadlar bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi [7, 93]. Interpretativ IFODA (lot. interpretari – "talqin qilish, izohlash") – nutq ifodasining boshqa bir fikr yoki ifodaga o'xshashligi asosida tushunilishi bo'lib, so'zlovchi avvalgi nutq yoki ma'lumotni talqin qiladi va qayta ifodalaydi. Bu qo'llanilish tavsifiy qo'llanilishdan farqli ravishda, real voqelikni emas, balki boshqa ifoda yoki fikrning ma'no jihatidan aks ettirilishini bildiradi.

Pragmatik jihatdan, interpretativ qo'llanilish nutq kontekstiga bog'liq bo'lib, so'zlovchining intensional (subyektiv) ma'nolarni yaratish, boshqa bironing so'zlarini bilvosita ifodalash, yoki xulosa chiqarish kabi kommunikativ strategiyalarini o'z ichiga oladi. Masalan, "U aytdi: "Men kelaman" tavsifiy qo'llanilish bo'lsa, "U kelishini aytdi" interpretativ qo'llanilish hisoblanadi, chunki bu so'zlovchining talqiniga asoslangan va u asl ifodani o'z tahlili orqali yetkazmoqda.

### 3. Refleksiv-hermenevtik kompetensiya

Refleksiya (o'z faoliyatini tahlil qilish) hermenevtik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, talaba-o'qituvchida o'z fikrini baholash, talqin sifatini tekshirish, pedagogik qarorni asoslash malakalarini shakllantiradi [8, 141].

**Muhokama.** Olingan natijalar xalqaro hermenevtika nazariyasi bilan hamohang bo'lib, ta'limda matnni talqin qilish o'qituvchi kasbiy mahoratining asosiy ko'rsatkichi ekanini tasdiqlaydi. Hermenevtik jihatdan to'g'ri asoslangan dars maqsadi va mazmuni jihatidan ko'zlangan natijaga yaqinroq bo'ladi. Raqamli texnologiyalar sharoitida hermenevtik kompetensiyaning roli yanada

ortib, o'qituvchidan informatsion muhitni tanqidiy tahlil qilish, mediaresurslarni pedagogik maqsadga muvofiq talqin qilish talab etilmoqda[9, 74]. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchida hermenevtik kompetentlikni shakllantirish jarayoni uchta pedagogik shartni talab etadi: matn va axborot bilan ishlashda ko'p bosqichli tahlil modeli, ilmiy-nazariy hermenevtika bilan integratsiya qilingan amaliy mashg'ulotlar, talabada tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi vaziyatli topshiriqlar[10, 64]. Fikrimizcha, mazkur pedagogik shartlarning samarali amalga oshirilishi ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining reflektiv tafakkurini faollashtiradi, pedagogik voqelikni chuqur anglash va mazmunan talqin etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, vaziyatli topshiriqlar orqali talabaning pedagogik hodisalarga nisbatan shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni talqin asosida yechish qobiliyati mustahkamlanadi. Shu bilan birga, nazariya va amaliyot integratsiyasi bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatida hermenevtik yondashuvni ongli va tizimli qo'llashiga zamin yaratadi.

#### 1. Matn va axborot bilan ishlashda ko'p bosqichli tahlil modeli

Bo'lajak o'qituvchilarda hermenevtik kompetentlikni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri – bu ko'p bosqichli hermenevtik tahlil modelidan foydalanishdir. Mazkur model matnni yuzaki o'qishdan tortib, chuqur semantik qatlamlarni aniqlashgacha bo'lgan izchil jarayonni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, matnni bosqichma-bosqich talqin qilish o'qituvchi tafakkurida mazmunni rekonstruksiya qilish (matn ortidagi ma'noni qayta yaratish) imkonini beradi.

##### 1.Ko'p bosqichli tahlil modeli quyidagi bo'g'inlardan iborat:

##### 1-bosqich: Denotativ (yuzaki) mazmunni aniqlash.

Bu bosqichda o'quvchi matnning bevosita mazmuni, faktlar, voqealar va ma'lumotlarni tushunadi. O'qituvchi matndagi asosiy g'oya va mavzuni aniqlashtirishga yordam beradi. Bu bosqich Culler (2021) ta'kidlagan “literal understanding” jarayoni bilan mos keladi.

##### 2-bosqich: Kontekstual (xalqaro, madaniy, tarixiy) talqin.

Matnni to'g'ri talqin qilish uchun uning madaniy, ijtimoiy, tarixiy kontekstini tahlil qilish talab etiladi. Hermenevtik yondashuvda mazmunning kontekstual tahlili matn mazmunini chuqurlashtiradi va talqin variantlarini kengaytiradi.

##### 3-bosqich: Semantik tahlil.

Bu bosqichda talaba matndagi semantik birliklar — metafora, ramz, konnotatsiya, til birliklari — ustida ishlaydi. Gadamer (2020) tomonidan ishlab chiqilgan “matnning o'zini tinglash” tamoyili aynan shu bosqichga taalluqlidir.

##### 4-bosqich: Interpretativ sintez.

Talaba matnning umumiy mazmunini o'z dunyoqarashi bilan bog'lashga o'tadi. Bu bosqich hermenevtik doira (matn–kontekst–talqin–yangi mazmun) mexanizmini ishga soladi.

##### 5-bosqich: Refleksiv xulosa chiqarish.

Matn bo'yicha yakuniy xulosa chiqariladi, talaba o'z talqinining aniqligi, asoslanganligi va obyektivligini baholaydi. Bu bosqich Fish (2020) tomonidan "interpreting the self through the text" (matn orqali o'zini talqin qilish) deb ataladi. Mazkur model bo'lajak o'qituvchilarda matnni tahlil qilishning ilmiy, izchil va chuqur o'rganilgan mexanizmini shakllantirib, ularning hermenevtik savodxonligini mustahkamlaydi.

## 2. Ilmiy-nazariy hermenevtika bilan integratsiya qilingan amaliy mashg'ulotlar.

Germenevtik kompetentlikni shakllantirish uchun nazariy bilimlar albatta praktik mashg'ulotlar bilan integratsiya qilinishi zarur. Bu jarayon o'qituvchi tayyorlash dasturlarida eng samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Integratsiyaning asosiy mezonlari:

### A) Hermenevtika nazariyasini real matnlarda qo'llash

Talabalar Gadamer, Ricoeur, Habermas, Schleiermacher, Culler kabi hermenevtik olimlarning nazariyalarini badiiy matnlar, ilmiy matnlar, darsliklar, dars jarayonidagi kommunikativ vaziyatlar asosida qo'llashadi.

Bu yondashuv nazariya va amaliyotning birlashuviga xizmat qiladi.

### B) Real pedagogik vaziyatlar asosida talqin mashqlari

Talabalar o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-ota-ona, o'qituvchi-guruh muloqotlari bo'yicha vaziyat matnlarini talqin qiladi. Masalan:

- o'quvchi noto'g'ri tushungan topshiriqni talqin qilish;
- konflikt holatlaridagi ma'no ko'chishlarini tahlil qilish.

### C) Matnni qayta talqin qilish bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari

Talabalar matnni yoshga moslashtiradi, murakkab atamalarni soddalashtiradi, talqin strategiyalarini qo'llaydi. Bu jarayon pedagogik kommunikatsiyada hermenevtikaning qo'llanma sifatida ishlatilishini ta'minlaydi.

### D) Raqamli hermenevtika mashg'ulotlari

Zamonaviy sharoitda digital matnlar (video, post, infografika, blog, GIF, audio) hermenevtik tahlil obyekti bo'lib bormoqda. Santos (2022) raqamli matnning ko'p qatlamli mazmunini ajratish bo'yicha alohida metodikani ishlab chiqqan. Ushbu integratsiyalashgan jarayon bo'lajak o'qituvchilarni murakkab matn va vaziyatlarni talqin qilishga puxta tayyorlaydi.

## 3. Talabada tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi vaziyatli topshiriqlar

Germenevtik kompetentlikning yetakchi shartlaridan biri — vaziyatli topshiriqlar orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirishdir. Tanqidiy fikrlash — talabaning axborotni tahlil qilish, solishtirish, baholash va yangi g'oya yaratish qobiliyatidir. Hermenevtik yondashuvda tanqidiy fikrlash talqinning sifatini oshiradi.

Vaziyatli (case-study) topshiriqlar turlari:

### 1. Noaniq mazmunli matnlarni talqin qilish

Talabaga turli ma'noga ega matn beriladi, u mazmunning turli talqin variantlarini yaratadi. Bu mashq konnotatsion va metaforik fikrlashni kuchaytiradi.

### 2. Konfliktli pedagogik holatni tahlil qilish

Misol: o'quvchi topshiriqni noto'g'ri bajargan, sabab "matnni tushunmagan". Talaba bu vaziyatda:

- a) matndagi muammo;
- b) o'quvchi tomonidan yuzaga kelgan interpretativ xato;
- c) o'qituvchi uchun to'g'ri pedagogik talqin strategiyasini ishlab chiqadi.

### 3. Taqqoslovchi talqin topshiriqlari

Talabaga bir mavzuda ikki turli matn (ilmiy va badiiy, matn va video, grafik va matn) beriladi.

Talaba:

- asosiy fikrni ajratadi,
- matnlar o'rtasidagi semantik farqni aniqlaydi,
- o'z talqin variantini asoslaydi.

### 4. "Talqin xatolarini topish" topshirig'i

Talabaga noto'g'ri talqin qilingan matn beriladi. U talqindagi xatoni topishi va to'g'rilashi kerak. Bu usul Fish (2020) tomonidan hermenevtik mashg'ulotlarning samarali shakli sifatida ko'rsatilgan.

### 5. Raqamli axborotni tahlil qilish topshiriqlari

Talabalar:

- reklama matni,
- ijtimoiy tarmoq posti,
- video syujet mazmunini tahlil qilib, manipulyativ elementlarni aniqlashadi.

Bu jarayon ularni axborot xurujlari davrida mustahkam fikrlovchi mutaxassisga aylantiradi.

O'rganilgan adabiyotlar va empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda hermenevtik kompetentlikni shakllantirish jarayoni pedagogik yondashuv, o'quv metodlari va o'quv motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Natijalar pedagogik jarayonda matnni chuqur tahlil qilish, kontekstual fikrlash va talaba shaxsining individual tajribasini hisobga olish muhimligini tasdiqlaydi. Shuningdek, o'qituvchilarda interpretativ yondashuvni rivojlantirish nafaqat fanlarni o'qitish samaradorligini oshiradi, balki talabalarning tanqidiy va reflektiv fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, hermenevtik kompetentlikni shakllantirishdagi asosiy pedagogik vositalar sifatida muhokama, loyiha asosidagi vazifalar va interaktiv dars metodlari samarali ekanligi aniqlangan. Natijalar pedagogik amaliyotga ham bevosita tatbiq etilishi

mumkin bo‘lib, u kelajak o‘qituvchilarni mustaqil, chuqur tafakkur qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda hermenevtik kompetentlikni shakllantirish zamonaviy pedagogik ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hermenevtik kompetentlik o‘qituvchining ta‘lim jarayonida matn, pedagogik vaziyat, o‘quvchi shaxsi hamda ijtimoiy-madaniy kontekstni chuqur anglash, talqin qilish va tahlil etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatida mustaqil fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hermenevtik kompetentlikni rivojlantirish pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga hermenevtik yondashuvni joriy etish hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Gadamer H.-G., Truth and Method, Bloomsbury Publishing, 2020, 115–118.
2. Santos D., Digital Hermeneutics in Education, Springer, 2022, 64–69.
3. Culler J., Literary Theory: A Very Short Introduction, Routledge, 2021, 52–56.
4. Nurmatova N., Pedagogik Kompetensiyalar Tahlili, TDIU, 2023, 71–79.
5. Eagleton T., Interpretation and Education, Routledge, 2020, 29–34.
6. Kurbanov A., Hermenevtik Yondashuv Asoslari, Fan, 2021, 88–94.
7. Farhodova M., Raqamli Pedagogik Texnologiyalar, TDPU, 2022, 93–101.
8. Fish S., Doing What Comes Naturally, Harvard University Press, 2020, 141–147.
9. Friesen N., Digital Hermeneutics and Learning, MIT Press, 2021, 74–80.
10. Muminov N., Ta‘limda Tanqidiy Tahlil, Fan, 2020, 64–70.